

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG ASARLARIDA POETIK TIL XUSUSIYATLARI

**Nurmaxmatova Furuza Rasulovna**

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** XX asr ikkinchi yarmida adabiyotda inson ruhi, hayotiy haqiqatlar va falsafiy tafakkurni badiiy jihatdan yoritib bera olish xususiyati muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Mana shu davrda qalam tebratgan ko'pchilik ijodkorlar, shu jumladan, Aleksandr Arkadevich Faynberg o'ziga xos poetik uslubi, samimiy lirizm va badiiy tilga xos bo'lgan boyligi bilan farqlidir. Faynberg lirikasi inson yurak tubida his etib turgan eng nozik tuyg'ularni ifodalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lib, uning poetik tili teran falsafiylik bilan yo'g'rilgan mulohazalarni kitobxonga tushunarli bo'lgan sodda, biroq ta'sirchan uslubda ochib bergan. Shoir asarlari qaysi davr insonlari tomonidan mutolaa qilinmasin ularga birday manzur bo'lgan, qalbidan chuqur joy egallagan. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg asarlari badiiy tiliga xos bo'lgan xususiyatlar tadqiqiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Faynberg, lirika, poetik til xususiyatlari, metaforik tasvir, epitetlar, jonlantirish (personifikatsiya), ramziy obrazlar, tabiat tasviri, inson ruhiy kechinmalari, falsafiy mazmun, badiiy ifoda vositalari, she'riy uslub, poetik tafakkur.

**Abstract:** In the second half of the 20th century, the ability to artistically illuminate the human spirit, vital truths, and philosophical thought began to gain importance in literature. Many writers who wrote during this period, including Alexander Arkadyevich Feinberg, are distinguished by their unique poetic style, sincere lyricism, and the richness of artistic language. Feinberg's lyrics set out to express the most delicate feelings felt deep

in the human heart, and his poetic language revealed deep philosophical reflections in a simple but touching style that was understandable to the reader. The poet's works were equally appealing to people of all eras and took a deep place in their hearts. This article is devoted to the study of the features inherent in the artistic language of Alexander Arkadyevich Feinberg's works.

**Keywords:** Feinberg, lyrics, poetic language features, metaphorical imagery, epithets, personification, symbolic images, depiction of nature, human spiritual experiences, philosophical content, means of artistic expression, poetic style, poetic thought.

**Аннотация:** Во второй половине XX века в литературе стало приобретать важное значение умение художественно освещать человеческий дух, жизненные истины и философскую мысль. Многие писатели этого периода, в том числе Александр Аркадьевич Файнберг, отличаются уникальным поэтическим стилем, искренним лиризмом и богатством художественного языка. Лирика Файнберга стремилась выразить самые тонкие чувства, глубоко засевшие в человеческом сердце, а его поэтический язык раскрывал глубокие философские размышления в простом, но трогательном стиле, понятном читателю. Произведения поэта одинаково привлекали людей всех эпох и занимали глубокое место в их сердцах. Данная статья посвящена изучению особенностей художественного языка произведений Александра Аркадьевича Файнберга.

**Ключевые слова:** Файнберг, лирика, особенности поэтического языка, метафорическая образность, эпитеты, олицетворение, символические образы, изображение природы, духовные переживания человека, философское содержание, средства художественного выражения, поэтический стиль, поэтическая мысль.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zgacha badiiy tildan foydalanib, asarlarini badiiy jihatdan bebaho qilgani haqida ko'p ta'kidlangan. Endi mana shu badiiy tilni yoritishdan oldin o'zi badiiy til qanday ma'noni anglatadigan tushuncha ekanligini o'zgina

ochiqlasak. Poetik badiiy til-bu shoirning badiiy fikrini ifodalovchi asosiy vositalar bo'lib, ramz, metafora, jonlantirish, ritm, ohang kabilarda va shoir bitgan soddadek tuyuladigan oddiy misralarda namoyon bo'ladi.

Shu ta'kidlab o'tganlarimizdan biri metafora Faynberg ijodiyotida sermahsul qo'llanilgan til qurilmalaridan sanaladi. Shoir metafora vositasida reallikdagi voqelikni obraz darajasiga ko'tarib, o'quvchini chuqur o'yga solib qo'yadigan falsafiy ma'no-mazmunni yaratadi. Masalan, shoirning eng mashhur she'rlaridan biri "Varaq" da quyidagi misralar keltirilgan:

"Yulduzlarni asraydi falak,  
Teran dengiz asrar durlarni.  
Daftarimdan yirtilgan varaq,  
Asragin men yozgan she'rlarni."

Bu misralarda "yulduzlarni asraydi falak" va "dengiz asrar durlarni" iboralari metaforik tasvir sifatida ishlatilgan. Bu o'rinda shoir she'ni yulduz va yoki dur kabi qimmatli ne'mat sifatida ko'radi. Demak, metafora orqali ijod va so'zning qadri ulug'lanadi. Faynberg bunday qurilmalardan shubhasiz she'rlari badiiy tiliga falsafiylikni jo qilish uchun foydalanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, uning she'rlari kitobxonga estetik zavq berish bilan bir qatorda tafakkur qilishga ham da'vat etadi.

Faynberg poetik tiliga xos bo'lgan yana bir farqli jihat epitetdan keng foydalanishdir. Epitetlardan foydalanish she'rga jonlilik va ta'sirchanlik ruhini beradi. Shoirning "Qish" she'ridan quyidagi misra orqali misol keltira olamiz:

"Yo'q! – dedimi – demak, yo'q,  
Sevgi tilamam zinhor.  
So'qmoq. Qahraton sovuq,  
Tizzam qadar oppoq qor."

“Qahraton sovuq” va “oppoq qor” birikmalari ushbu satrlardan ishlatilgan epitet namunalari. Epitetlar bu yerda tasvirni kuchaytiradi. Ular faqat tashqaridagi tabiat manzarasini emas, inson ichki kechinmalarini ham ifodalaydi. Qahraton sovuq muhabbatdagi sovuqlik va ruhiy iztirobni ramziy tarzda bildiradi.

Jonlantirish san’ati Faynberg lirikasida salmoqli qo’llangan badiiy adabiyot san’at turlaridan yana biri hisoblandi. Bunda shoir tabiat manzaralarini inson kabi jonliq tasvirlaydi.

“Balki dard, ko‘z yoshidan

She’rimizda malohat?”

“Savol” she’ridan keltirilgan yuqoridagi misralarda she’r go’yoki tirik mavjudotdek gavalantirilgan bo’lib, dard va ko‘z yoshidan malohat, ya’ni go’zallik oladi deya aytilgan.

Aleksandr Faynberg poetik tiliga tegishli bo’lgan yana bir muhim fazilat shuki, oddiy obrazlar uning she’riyatida chuqur falsafiy ma’nolarni bildiradi.

Tong aslo otmadi. Yomg’ir yog‘di mo‘l,

Yo‘ldan mashinalar o‘tadi g‘iz-g‘iz.

– Olib ketinglar, – deb ko‘taraman qo‘l,

Lekin hech kim meni ko‘rmaydi yolg‘iz.

Bu misralarda tong, yomg’ir va yo‘l so‘zlari ramziy ma’noda qo’llangan bo’lib, teran falsafiy mulohazaga ega. Tong otmasligi- umidsizlik va ruhiy tushkunlik, yomg’ir esa iztirob va ichki og’riqni anglatadi. Shoir bu yerda shunday ramzlar asnosida insonning jamiyat ichidagi yolg’izlik va ruhiy iztirobini falsafiy yo’sinda tasvirlaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg lirikasida poetik til o’zining nihoyatda boyligi va falsafiy jihatdan teranligi bilan farqlidir. Shoir metafora, epitet, jonlantirish, ramziy obrazlardan keng ko‘lamli foydalanib, bu orqali inson ruhiyati va hayotning murakkab masalalarini ifodalaydi. Uning poetik tiliga xos bo’lgan

sodda, ravon o'qiladigan, ammo behisob samimiyat va ta'sirchanlik orttilgan misralar uni o'quvchiga aziz qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Faynberg A.A. She'rlar va dostonlar. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi.
4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: Fan.
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)